GCCR
Global Conference on Contemporary Research

GLOBAL CONFERENCE ON CONTEMPORARY RESEARCH



CONFERENCE THEME:

SUSTAINABLE FUTURES:
INNOVATION, DIGITAL TRANSFORMATION AND GLOBAL COLLABORATION THROUGH CONTEMPORARY RESEARCH

INNOVATION | DIGITAL TRANSFORMATION | GLOBAL COLLABORATION | SUSTAINABLE FUTURES

JOURNAL

PEER-REVIEWED PROCEEDINGS

OCTOBER 2026

TORONTO, CANADA

gccr.academy

THE CLASS TEACHER'S MODEL FOR ORGANIZING LEGAL CULTURE AND ITS ASSESSMENT CRITERIA

Madalimov Elbek Farxotovich

Senior Lecturer

University of Military Security and Defence of the Republic of Uzbekistan.

https://doi.org/10.5281/zenodo.23598308

Abstract: This article presents views on the model for organizing the legal culture of a class teacher and the evaluation criteria. If, from a jurisprudential perspective, the article is characterized by the combination of legal knowledge, the attitude toward law, and the legal behavior of the individual, then from a pedagogical perspective, legal culture is analyzed as the improvement of a personal quality developed under the influence of purposeful education and upbringing.

Keywords: legal culture, evaluation criteria, attitude, legal behavior, pedagogical aspect.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinf rahbari huquqiy madaniyatni tashkil etish modeli va baholash mezonlari xususida fikrlar keltirilgan. Maqola huquqshunoslik nuqtai nazaridan u shaxsning huquqiy bilimlari, huquqqa munosabati va qonuniy xulq-atvorining uyg‘unligi bilan tavsiflansa, pedagogik jihatdan huquqiy madaniyat maqsadli ta’lim-tarbiya ta’sirida rivojlantiriladigan shaxsiy sifatni takomillashtirish tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: huquqiy madaniyat, baholash mezonlari, munosabat, qonuniy xulq-atvor, pedagogik jihat.

Аннотация: В данной статье представлены мнения о модели организации правовой культуры классного руководителя и критериях оценки. Если с точки зрения юриспруденции статья характеризуется сочетанием правовых знаний, отношения к праву и законного поведения личности, то с педагогической точки зрения правовая культура анализируется как совершенствование личностного качества, развиваемого под воздействием целенаправленного образования и воспитания.

Ключевые слова: правовая культура, критерии оценки, отношение, правовое

поведение, педагогический аспект.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri o‘quvchilarda huquqiy bilimlarni shakllantirish bilangina cheklanmay, ularda qonunga hurmat, huquq va majburiyatlar birligini anglash, huquqiy qadriyatlarni e’tirof etish, o‘z xatti-harakatlarini huquqiy me’yorlar asosida boshqarish hamda jamiyat hayotida mas’uliyatli ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Mazkur vazifa huquqiy madaniyatni o‘quvchi shaxsining alohida sifati emas, balki uning bilimlari, qadriyatli munosabatlari, ijtimoiy xulq-atvori va refleksiv faoliyatini birlashtiruvchi murakkab integrativ tuzilma sifatida o‘rganishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonini maqsadli loyihalash, uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi funksional bog‘lanishlarni aniqlash hamda natijadorligini ilmiy asoslangan mezonlar orqali baholash zarurati yuzaga keladi. **Asosiy qism.** Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqshunoslik, pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari kesishmasida o‘rganiladigan ko‘p komponentli hodisa hisoblanadi. Huquqshunoslik nuqtai nazaridan u shaxsning huquqiy bilimlari, huquqqa munosabati va qonuniy xulq-atvorining uyg‘unligi bilan tavsiflansa, pedagogik jihatdan huquqiy madaniyat maqsadli ta’lim-tarbiya ta’sirida rivojlantiriladigan shaxsiy sifat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida huquqiy bilim berish bilan bir qatorda mazkur bilimlarni qadriyatga aylantirish, ulardan amaliy vaziyatlarda foydalanish va o‘z xulq-atvorini mustaqil baholashga o‘rgatish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda insonning huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 50-moddasida har kimning ta’lim olish huquqi kafolatlangan, 78-moddada davlat bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash va himoya qilish, uning har tomonlama rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish majburiyatini olishi belgilangan. 79-moddada esa davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi hamda ularning jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirokini rag‘batlantirishi qayd etilgan. Mazkur konstitutsiyaviy qoidalar

o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishni umumiy o‘rta ta’limning muhim tarbiyaviy yo‘nalishi sifatida tashkil etish uchun normativ asos yaratadi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ham bolaning huquqiy bilim va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Xususan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining 29-moddasida ta’lim bolaning shaxsiyati, iste’dodi va qobiliyatlarini rivojlantirish, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni shakllantirish hamda bolani erkin jamiyatdagi mas’uliyatli hayotga tayyorlashga yo‘naltirilishi belgilangan. Demak, maktab sharoitida huquqiy tarbiya huquqiy axborotni yetkazish bilangina emas, balki o‘quvchining kundalik munosabatlari va faoliyatida huquqiy qadriyatlarning amaliy namoyon bo‘lishini ta’minlash bilan tavsiflanishi lozim.

Pedagogik modellashtirish nuqtai nazaridan mazkur jarayonning yaxlit tizimini yaratish alohida ahamiyatga ega. Pedagogik model tadqiq qilinayotgan jarayonning asosiy elementlari, ular o‘rtasidagi munosabatlar, jarayonni amalga oshirish mexanizmlari va kutiladigan natijalarni umumlashtirilgan shaklda ifodalash imkonini beradi. Model real pedagogik jarayonni aynan takrorlamaydi, balki uning eng muhim tarkibiy-funksional xususiyatlarini ajratib, tadqiqotchiga jarayonning ichki mexanizmlarini tushuntirish, pedagogik ta’sir yo‘nalishlarini belgilash va natijalarni baholash imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotimizda huquqiy madaniyatni tashkil etish modeli **tizimli, faoliyatli, aksiologik, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi** asosida ishlab chiqildi. Tizimli yondashuv huquqiy madaniyatning alohida komponentlarini o‘zaro bog‘liq yaxlit tuzilma sifatida o‘rganishni; faoliyatli yondashuv olingan huquqiy bilimlarni amaliy faoliyatga ko‘chirishni; aksiologik yondashuv huquq, adolat, tenglik, erkinlik va inson qadr-qimmatini shaxsiy qadriyatlarga aylantirishni; shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchining individual xususiyatlari, ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olishni; kompetensiyaviy yondashuv esa bilimni real ijtimoiy-huquqiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu asosda ishlab chiqilgan model o‘zaro uzviy bog‘langan **ijtimoiy buyurtma, maqsad, tarkibiy komponentlar, pedagogik shart-**

sharoitlar, amalga oshirish mexanizmlari va metodlari, mezon va ko‘rsatkichlar, baholash usullari hamda natijaviy komponent bloklarini qamrab oladi. Mazkur bloklarning vertikal va gorizontal aloqadorligi huquqiy madaniyatni shakllantirishni bir martalik tarbiyaviy tadbir emas, balki maqsadli, uzluksiz, diagnostik va korreksion xususiyatga ega pedagogik jarayon sifatida tashkil qilish imkonini beradi.

Huquqiy madaniyatning haqiqiy darajasi, eng avvalo, real vaziyatdagi xulq-atvorda namoyon bo‘ladi. Shu sababli o‘quvchiga “Nimani bilasan?” savoli bilan bir qatorda “Mazkur vaziyatda qanday yo‘l tutasan?” savolini berish pedagogik diagnostika nuqtai nazaridan muhimdir. O‘quvchining nizoli vaziyatda zo‘ravonlikdan voz kechishi, o‘z huquqini qonuniy vositalar orqali himoya qilishi, boshqa shaxsning fikrini tinglashi, maktab qoidalariga ongli rioya qilishi va huquqbuzarlikka nisbatan befarq bo‘lmasligi faoliyat komponentining shakllanganligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Umuman, o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning samaradorligi sinf rahbarining maqsadli pedagogik faoliyati, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, sifatli pedagogik munosabatlar, oila va maktab hamkorligi hamda tizimli diagnostikaning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Tadqiqotda asoslangan metodik yondashuvlardan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sinf rahbarlarining tarbiyaviy faoliyatini takomillashtirish, o‘quvchilarning huquqiy ongi, mas’uliyati va qonuniy xulq-atvorini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 2020. – 23 b.

2. Алпатов В. М., Борисова Е. Г., Валуйцева И. И. Социолингвистика: учебник для вузов. – Санкт-Петербург: Лань, 2024. – 260 с.

3. G‘afforov J. Shahar va qishloq maktablarida adabiy til me’yorlarini o‘qitish va dialektal tafovutlar // Pedagogik mahorat. – B., 2023. – №4. – B. 19–25.

4. Баранова В. В. Языковые особенности русских регионов: между диалектом и регионолектом // Вопросы языкознания.– М, 2021. –№ 4. – С. 45–59.

5. Bekchanov R. Xorazm va Farg‘ona lahjalari o‘rtasidagi morfologik farqlarning adabiy muloqotga ta’siri // Ma’mun Akademiyasi ilmiy jurnali. – 2026. – №4. – B. 180–187.